



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

TALABALARDA KONSEPTUAL FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: OLIY TA'LIM AMALIYOTI VA METODIK YECHIMLAR

G'ofurova Barnoxon Asadjon qizi

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya.

Ushbu maqolada oliy ta'lim jarayonida talabalarda konseptual fikrlashni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Konseptual fikrlashning ta'limiy mohiyati ochib berilib, uni shakllantirishning kognitiv, metakognitiv, didaktik hamda kommunikativ mexanizmlari asoslanadi. Shuningdek, oliy ta'lim amaliyotida konsept xaritalar, muammoli ta'lim, keys-stadi, reflektiv yondashuv va fanlararo integratsiya kabi metodik yechimlar samaradorligi yoritiladi. Tadqiqot natijalari talabalarining bilimlarni tizimli o'zlashtirishi, tushunchalararo bog'lanishlarni anglash hamda bilimlarni amaliy vaziyatlarga transfer qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Kalit so'zlar: konseptual fikrlash, oliy ta'lim, kognitiv mexanizm, metakognitsiya, konsept xarita, muammoli ta'lim, keys-stadi, refleksiya, fanlararo integratsiya, metodik yechim.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ФОРМИРОВАНИЯ КОНЦЕПТУАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ: ПРАКТИКА И МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Гофурова Барнохон Асаджон кизи

независимый исследователь Ферганского государственного университета

Аннотация.

В статье анализируются вопросы совершенствования механизмов развития концептуального мышления студентов в условиях высшего образования. Раскрывается педагогическая сущность концептуального мышления и обосновываются когнитивные, метакогнитивные, дидактические и коммуникативные механизмы его формирования. Особое внимание уделяется эффективности методических решений, таких как концептуальные карты, проблемное обучение, кейс-стади, рефлексивный подход и междисциплинарная интеграция в образовательной практике. Результаты исследования показывают, что применение данных подходов способствует системному усвоению знаний, осмыслению взаимосвязей между понятиями и переносу теоретических знаний в практические ситуации.

Ключевые слова: концептуальное мышление, высшее образование, когнитивный механизм, метакогниция, концептуальная карта, проблемное обучение, кейс-стади, рефлексия, междисциплинарная интеграция, методическое решение.

IMPROVING MECHANISMS FOR ENHANCING STUDENTS' CONCEPTUAL THINKING: PRACTICES AND METHODOLOGICAL SOLUTIONS IN HIGHER EDUCATION

G'ofurova Barnoxon Asadjon qizi

Independent Researcher, Fergana State University

Annotation.

This article examines the improvement of mechanisms for developing students' conceptual thinking in higher education. The pedagogical nature of conceptual thinking is clarified, and its

formation is substantiated through cognitive, metacognitive, didactic, and communicative mechanisms. The study highlights the effectiveness of methodological solutions such as concept mapping, problem-based learning, case study analysis, reflective learning, and interdisciplinary integration in university practice. The findings indicate that these approaches enhance students' systematic knowledge acquisition, understanding of conceptual relationships, and the transfer of theoretical knowledge to real-life academic and professional contexts.

Keywords: conceptual thinking, higher education, cognitive mechanism, metacognition, concept map, problem-based learning, case study, reflection, interdisciplinary integration, methodological solution.

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablar tobora murakkablashib bormoqda. Endilikda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayoni faqatgina nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki ularning tahliliy fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish, tizimli mushohada yuritish, muammoli vaziyatlarga konseptual yondashish hamda o'z bilimlarini real sharoitlarga moslashtirib qo'llash kabi intellektual faoliyat turlarini rivojlantirishni ham taqozo etmoqda. Mazkur jarayonlarda talabalar tomonidan o'rganilayotgan bilimlarning mantiqiy strukturasini anglash, tushunchalar o'rtasidagi ichki bog'liqlikni aniqlash va ularni turli vaziyatlarga tatbiq etish olish ko'nikmalarining shakllanishi oliy ta'lim sifatini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu ma'noda, ta'lim jarayonida talabalarning konseptual fikrlashini rivojlantirish masalasi oliy ta'lim amaliyotida alohida metodik ahamiyat kasb etadi. Konseptual fikrlash talabani axborotni fragmentar tarzda, ya'ni alohida fakt va ma'lumotlar ko'rinishida qabul qilishdan farqli ravishda, uni tushunchalar tizimi asosida qayta ishlashi, mohiyatini chuqur anglash orqali mantiqiy umumlashtirish va strukturaviy model sifatida tasavvur qilishi bilan xarakterlanadi. Bunday fikrlash turi talabani bilimlarni oddiy yodlashdan boshlab, ularni izohlash, tahlil qilish, o'zaro bog'lash, muammoli vaziyatlarda qayta qurish hamda kreativ yechimlar ishlab chiqish darajasigacha olib chiqadi.

Konseptual fikrlashning rivojlanganligi talabani akademik muvaffaqiyati va kasbiy tayyorgarligiga bevosita ta'sir ko'rsatib, ularning nazariy bilimlarni chuqur o'zlashtirishi, ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishi, ta'limiy vazifalarga kompleks yondashuvi hamda fanlararo aloqadorlikni anglay olishi imkonini yaratadi. Ayniqsa, bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuv talablaridan kelib chiqib, talabalar ta'lim mazmunini faqat eslab qolish emas, balki konseptual darajada tushunish, izohlash va amaliyotga ko'chirish olishga yo'naltirilmoqda. Shu bois, konseptual fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish oliy ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonning samaradorligini oshiruvchi dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, konseptual fikrlashni rivojlantirish jarayoni o'z-o'zidan sodir bo'ladigan hodisa emas, aksincha u maqsadga yo'naltirilgan, metodik jihatdan rejalashtirilgan, pedagogik shart-sharoitlar bilan ta'minlangan ta'lim jarayonini talab qiladi. Bunda ta'lim mazmunini konseptual asosda tashkil etish, muammoli vaziyatlar yaratish, reflektiv yondashuvni qo'llash, talabani mustaqil izlanishini rag'batlantirish hamda interfaol metodlardan tizimli foydalanish kabi omillar alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Shunday ekan, talabalarda konseptual fikrlashni rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy asosda takomillashtirish, oliy ta'lim amaliyoti uchun samarali metodik yechimlarni ishlab chiqish va joriy etish masalalari mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida talabalarning konseptual fikrlashini rivojlantirish masalasi kompetensiyaviy yondashuvning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida tadqiqotchilar e'tibor markaziga aylanib bormoqda. Konseptual fikrlash, avvalo, shaxsning bilimlarni alohida faktlar yig'indisi sifatida emas, balki tushunchalararo mantiqiy bog'liqliklar asosida tizimli idrok etishi hamda ularni yangi vaziyatlarda qo'llay olishi bilan izohlanadi. Mazkur yo'nalishda

shakllangan ilmiy qarashlar bir-birini to'ldiradigan nazariy yondashuvlar, kognitiv va metakognitiv konsepsiyalar, shuningdek, ta'lim amaliyotida metodik yechimlarni asoslaydigan didaktik modellarda namoyon bo'ladi.

Konseptual fikrlashning psixologik-nazariy asoslari, birinchi navbatda, konstruktivistik yondashuv doirasida izohlanadi. Xususan, J.Piaget shaxs intellektual rivojlanishini bilimlarni tayyor shaklda qabul qilish emas, balki subyektning faol bilish jarayonida "qurishi" bilan izohlaydi. Uning nazariyasiga ko'ra, talaba yangi bilimlarni mavjud kognitiv tuzilmalar bilan moslashtiradi va zarurat tug'ilganda ularni qayta tashkil etadi. Bu esa oliy ta'lim jarayonida konseptual fikrlashni shakllantirish uchun talabaning faol tahlil, taqqoslash, umumlashtirish kabi aqliy amallarini qo'llab-quvvatlash zarurligini asoslaydi.

Kognitiv rivojlanish va konseptual fikrlashning ijtimoiy omillarini yoritishda L.Vygotsky tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-madaniy yondashuv alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. U ta'limning samaradorligi shaxsning individual imkoniyatlaridan tashqari, muloqot va hamkorlikda tashkil etilgan faoliyat bilan ham belgilanadi, degan g'oyani asoslagan. Ushbu yondashuv konseptual fikrlashni rivojlantirish jarayonini faqat individual kognitiv holat sifatida emas, balki muloqot, bahs-munozara, hamkorlikdagi bilim yaratish jarayoni sifatida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

Konseptual fikrlashning didaktik asoslari, ayniqsa, J.Bruner konsepsiyasida chuqur ifodalangan bo'lib, u ta'lim mazmunini tushunchalar tizimi asosida berish, bilimni strukturaviy tashkil etish va uni izchil qayta kashf etishga yo'naltirish g'oyalarini ilgari suradi. Bruner ta'lim jarayonida asosiy tushunchalarni ajratish, ularni o'zaro bog'lash va turli kontekstlarda qayta qo'llashni ta'minlash konseptual fikrlashni mustahkamlovchi muhim shart ekanini ta'kidlaydi. Ushbu qarashlar oliy ta'limda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni "mazmunni bayon qilish" darajasida emas, balki tushunchaviy yadro atrofida qurishga ehtiyoj borligini ko'rsatadi.

Ta'lim mazmunini konseptual o'zlashtirishning mexanizmlari D.Ausubel tomonidan ishlab chiqilgan "mazmunli o'rganish" (meaningful learning) g'oyalari bilan ham uyg'unlashadi. Mazkur yondashuvda bilimlarni samarali o'zlashtirishning asosiy sharti sifatida yangi ma'lumotning talaba ongidagi avvalgi bilimlar tizimi bilan mantiqiy bog'lanishi e'tirof etiladi. Boshqacha aytganda, konseptual fikrlash rivojlanishi uchun talaba materialni mexanik yodlab olish emas, balki uni "tushunchaviy asos" bilan bog'lab, mazmunli anglash jarayonida ichki struktura hosil qilishi lozim bo'ladi.

Konseptual bilimlarni vizual tashkil etish va tushunchalararo bog'lanishlarni modellashtirish bo'yicha ilmiy yondashuvlar J.Novak tomonidan konsept xaritalar texnologiyasi orqali rivojlantirilgan. Novak konsept xaritalarni talabalarning tushunchalar tizimini aniqlashtirish, ular o'rtasidagi ierarxiya va sababiy aloqalarni namoyon etish hamda bilim tuzilmasini mustahkamlashga xizmat qiluvchi vosita sifatida baholaydi. Bu yondashuv oliy ta'lim amaliyotida murakkab mavzularni o'zlashtirish, tizimli fikrlashni shakllantirish va talabalarning konseptual model tuzish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun metodik asos bo'la oladi.

Konseptual fikrlashning ta'limiy natijalari, shuningdek, taksonomik yondashuvlar bilan ham izohlanadi. B. Bloom va keyinchalik L.Anderson hamda D.Krathwohl tomonidan takomillashtirilgan kognitiv taksonomiya o'quv natijalarining bosqichma-bosqich murakkablashib borishini asoslaydi. Xususan, "bilish" va "tushunish" darajalaridan "qo'llash", "tahlil", "baholash" hamda "yaratish" bosqichlariga ko'tarilish talabaning konseptual fikrlashga o'tishini bildiradi. Mazkur model oliy ta'limda topshiriqlarni soddadan murakkabga yo'naltirilgan holda konstruktsiyalash hamda baholash mezonlarini konseptual natijalar bilan moslashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Konseptual fikrlash mexanizmlarini takomillashtirishda muhim o'rin tutuvchi jihatlardan biri metakognitsiya, ya'ni talabaning o'z fikrlashini kuzatishi, boshqarishi va baholay olishi bilan bog'liqdir. Metakognitiv yondashuvlar ta'lim jarayonida talabani faqat bilim egallovchi subyekt

sifatida emas, balki o'z intellektual faoliyatini ongli rejalashtiruvchi va tahlil qiluvchi shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltiriladi. Bunday yondashuv konseptual fikrlashni "barqaror kompetensiya" darajasiga olib chiqish uchun refleksiya, o'z-o'zini baholash, ta'limiy strategiyalarni tanlash kabi mexanizmlarning ahamiyatini oshiradi.

Ta'lim jarayonida konseptual fikrlashning rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni yoritishda A.Bandura tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy o'rganish nazariyasi muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Bandura shaxsning o'rganishi kuzatuv, taqlid, o'z-o'zini boshqarish va ijtimoiy motivatsiya bilan uzviy bog'liq ekanini asoslaydi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'limda konseptual fikrlashni rivojlantirish talabning o'quv motivatsiyasi, akademik ishonchi va hamkorlikdagi faoliyatiga mos pedagogik muhit yaratishni ham talab etadi.

Ta'limning samaradorligi va o'quv natijalariga ta'sir etuvchi omillarni empirik yondashuv asosida tahlil qilgan J.Hattie tadqiqotlarida o'qituvchining aniq maqsadga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalari, reflektiv baholash va samarali teskari aloqa (feedback) talabning o'qishdagi muvaffaqiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi. Ushbu qarashlar konseptual fikrlashni rivojlantirish mexanizmlarini kuchaytirishda baholash jarayonini "nazorat" vositasidan ko'ra "rivojlantiruvchi" (formativ) modelga o'tkazish, talabning fikrlash jarayonini ochib beruvchi topshiriqlarni ko'paytirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Umuman olganda, xorijiy va milliy pedagogik-psixologik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, konseptual fikrlashni shakllantirish jarayoni kognitiv faollik, metakognitiv boshqaruv, didaktik dizayn hamda kommunikativ hamkorlik omillarining integratsiyasi orqali yuqori natija beradi. Shu sababli oliy ta'lim amaliyotida konseptual fikrlashni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, zamonaviy metodik yechimlarni (konsept xaritalar, muammoli ta'lim, keys-stadi, reflektiv topshiriqlar, fanlararo integratsiya) tizimli joriy etish va ularni konseptual baholash mezonlari bilan uyg'unlashtirish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Konseptual fikrlash oliy ta'lim jarayonida talabning bilimlarni faqat tayyor ma'lumotlar majmui sifatida qabul qilishi bilan cheklanmasdan, ularni mantiqiy izchillikda tushunishi, tizimlashtirishi va ma'no jihatidan qayta ishlashiga xizmat qiluvchi intellektual faoliyat shaklidir. Mazkur fikrlash turi shaxsning nazariy bilimlarni chuqur idrok etishi hamda o'quv jarayonida shakllanayotgan tushunchalarni amaliy vaziyatlar bilan bog'lash ko'nikmasini rivojlantiradi. Natijada talaba bilimlarni yodlab qolish darajasidan yuqoriroq bosqichga ko'tarilib, tushunchalarni izohlash, tahlil qilish, sintezlash hamda yangi sharoitlarga moslashtirib qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Konseptual fikrlashning shakllanishi jarayonida talaba, avvalo, ta'lim mazmunidagi asosiy konseptlarni aniqlash, keyinchalik esa ularning o'zaro bog'lanishini tushunish orqali bilimlarni yaxlit tizimga keltirishni o'rganadi. Bunda u tushunchalar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini anglaydi, muayyan g'oya va nazariyalar asosida umumiy xulosalar chiqaradi hamda o'zlashtirilgan bilimlarini yangi o'quv yoki kasbiy vaziyatlarda qo'llashga harakat qiladi. Shu sababli konseptual fikrlash bugungi ta'lim paradigmasida kompetensiyaviy yondashuvning asosiy natijaviy mezonlaridan biri sifatida baholanadi, chunki u talabning nafaqat bilimi, balki bilimdan foydalanish madaniyati va intellektual moslashuvchanligini ham aks ettiradi.

Oliy ta'lim amaliyotida konseptual fikrlashni rivojlantirish bir nechta o'zaro uzviy bog'liq mexanizmlar orqali ta'minlanadi. Ushbu mexanizmlar ta'lim jarayonining mazmuni, metodikasi va pedagogik muhitiga mos holda kompleks tarzda tashkil etilgandagina kutilgan natijaga erishish mumkin bo'ladi.

Konseptual fikrlashning asosiy poydevori talabning kognitiv (bilish) jarayonlarini faollashtirish bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu mexanizm diqqatni jamlash, ma'lumotni idrok etish, xotirada saqlash, tahlil qilish, umumlashtirish hamda refleksiv baholash kabi aqliy faoliyatlarni tizimli rivojlantirishni ko'zda tutadi. Kognitiv mexanizmning ta'limiy vazifasi

shundan iboratki, talaba o'quv materialini oddiy axborot sifatida emas, balki tushunchaviy birliklar orqali anglay boshlaydi, natijada "ma'lumot" konseptga, konsept esa bilimlar tizimiga aylanadi.

Konseptual fikrlashni yuqori darajaga olib chiqishda metakognitiv mexanizm alohida ahamiyat kasb etadi. Metakognitiv yondashuv talabaning o'z fikrlash jarayoniga ongli ravishda nazar tashlashi, uni boshqarishi va baholay olishini rivojlantiradi. Bu jarayonda talaba o'ziga "men qanday fikrlayapman?", "qaysi usul samarali?", "xulosam qanday asoslangan?" kabi savollarni berish orqali fikrlash strategiyasini rejalashtiradi, takomillashtiradi hamda muammoli vaziyatlarda eng maqbul yechimni tanlashga intiladi. Shunday qilib, metakognitiv mexanizm konseptual fikrlashni barqarorlashtirish, chuqurlashtirish va mustaqil intellektual faoliyatga yo'naltirish imkonini beradi.

Konseptual fikrlashning shakllanishi ta'lim mazmuni va o'qitish strategiyalarining ilmiy-didaktik asosda tuzilishi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Didaktik mexanizm ta'lim jarayonida konseptlarning mantiqiy tuzilma sifatida berilishi, fanlararo integratsiya, muammoli vaziyatlar yaratish, loyihaviy faoliyatga yo'naltirish va keyslar asosida o'qitish orqali amalga oshiriladi. Bunda pedagog o'quv mazmunini shunchaki ma'lumot berish emas, balki talaba ongida konseptual tizimni shakllantirishga xizmat qiladigan metodik vositalar yordamida tashkil etadi. Ayniqsa, murakkab tushunchalarni modellashtirish va ularni real jarayonlarga tatbiq ettirish didaktik mexanizmning samaradorligini ta'minlaydi.

Konseptual fikrlash ko'plab holatlarda individual fikrlash jarayoni bo'lishi bilan birga, hamkorlikdagi intellektual faoliyat natijasida yanada rivojlanadi. Kommunikativ mexanizm munozara, bahs-munozarali topshiriqlar, argumentatsiya va jamoaviy muhokama orqali talabaning konseptual tasavvurlarini boyitadi. O'zaro fikr almashish jarayonida talaba boshqa shaxsning pozitsiyasini tahlil qilish, dalillarni solishtirish hamda o'z qarashlarini asoslashga majbur bo'ladi. Aynan shu jarayonlar konseptual tarmoqni kengaytirib, bilimning chuqur va tizimli shakllanishiga zamin yaratadi.

Konseptual fikrlashni rivojlantirish samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan metodik yondashuvlarga bog'liq. Shu bois oliy ta'lim amaliyotida konseptual fikrlashni shakllantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy metodik yechimlardan tizimli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Konsept xaritalar talabaning bilimlarni grafik asosda modellashtirishi, tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlarni ko'rish va ularni izchil ravishda tizimlashtirishiga xizmat qiladi. Ushbu metodik vosita orqali talaba asosiy va yordamchi konseptlarni farqlaydi, ularning ierarxiyasini belgilaydi hamda mantiqiy ketma-ketlikni shakllantiradi. Konsept xaritalar ta'lim mazmunining strukturaviy ko'rinishini yaratgani uchun talabaning o'quv materialni chuqurroq anglashiga va bilimlarni uzoq muddatli xotirada mustahkamlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Muammoli ta'lim konseptual fikrlashni faollashtiruvchi eng samarali yondashuvlardan biri bo'lib, u talabaning tayyor javoblarni qabul qilishdan ko'ra, muammoning mohiyatini aniqlash va konseptual asosda yechim izlashiga turtki beradi. Bunday ta'lim jarayonida talaba muammoli vaziyatni tahlil qiladi, mavjud bilimlarini qayta ko'rib chiqadi, muqobil fikrlarni baholaydi va ilmiy asoslangan xulosalarga keladi. Natijada analitik fikrlash, konseptual tahlil va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalari izchil rivojlanadi.

Keys-stadi metodikasi real hayotga yaqin vaziyatlar asosida ishlashga yo'naltirilgani sababli talabaning nazariy tushunchalarni amaliy jarayonlar bilan bog'lash salohiyatini oshiradi. Keyslar orqali talaba vaziyat sabablarini aniqlaydi, jarayonga ta'sir qiluvchi omillarni ajratadi va ehtimoliy yechimlarni konseptual yondashuv asosida asoslaydi. Shu bilan birga, tahliliy topshiriqlar talabaning "vaziyat – tushuncha – xulosa" zanjiri bo'yicha fikrlash madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Reflektiv yondashuv talabaning o'z o'quv faoliyatini tahlil qilish, o'zlashtirilgan bilimlarning mazmunini anglash va ularni shaxsiy tajribaga integratsiya qilish jarayonlarini

kuchaytiradi. “Fikr kundaligi” amaliyoti asosida talaba har bir mavzu bo‘yicha o‘zida shakllangan konseptlarni qayd etadi, muhim bog‘lanishlarni ajratadi va bilimdagi bo‘shliqlarni aniqlashga harakat qiladi. Natijada konseptual fikrlashning ichki mexanizmlari mustahkamlanadi hamda talabaning o‘z-o‘zini nazorat qilish kompetensiyasi oshadi.

Konseptual fikrlashni rivojlantirishda fanlararo integratsiyaning didaktik imkoniyatlari yuqori hisoblanadi. Bir fan doirasida berilgan tushuncha boshqa fanlar bilan bog‘langanda talaba uni yanada chuqurroq anglaydi va kengroq kontekstda tasavvur qiladi. Xususan, STEAM yondashuvi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) talabaning muammoga turli nuqtai nazardan qarashiga, nazariy bilimlarni amaliy loyihalarda sinab ko‘rishiga hamda bilimlarning transfer ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu orqali nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviylik ta‘minlanadi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, talabalarda konseptual fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha metodik yondashuvlarning samaradorligi bir qator muhim omillar bilan belgilanadi. Avvalo, ta‘lim mazmuni konseptlar asosida qayta qurilib, tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqliklar aniq ko‘rsatilsa, talabalarning bilimni tizimli anglash darajasi sezilarli darajada oshadi. Shuningdek, muammoli va tahliliy topshiriqlardan muntazam foydalanish talabaning fikrlash faolligini kuchaytirib, konseptual xulosalash jarayonini jadallashtiradi. Bundan tashqari, reflektiv faoliyatning izchilligi konseptual fikrlashning barqaror shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Chunki refleksiya talabaning bilimlarni qayta ko‘rib chiqishi, tushunchalarni mustahkamlashi va ularni ongli ravishda boshqarishiga imkon yaratadi. Ta‘lim jarayonida mustaqil fikrlashni rag‘batlantiruvchi pedagogik muhit (muloqotga ochiqlik, hamkorlik, individual yondashuv, motivatsion qo‘llab-quvvatlash) shakllantirilgan sharoitda talabalarning konseptual fikrlashga yo‘naltirilgan faoliyati yanada yuqori natija beradi. Shuni ham alohida ta‘kidlash zarurki, konseptual fikrlashni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish jarayoni baholash tizimini ham qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Chunki an‘anaviy baholash ko‘pincha faktlarni qayta tiklash yoki ma‘lumotni eslab qolishga asoslanadi. Konseptual fikrlash esa tushunchalarni o‘zaro bog‘lash, modellashtirish, asosli xulosa chiqarish, muammoni konseptual tahlil qilish kabi faoliyat turlarini talab qiladi. Demak, baholash mezonlari ham aynan konseptual natijalarga yo‘naltirilishi, ya‘ni talabaning bilimdan foydalanish darajasi, izohlay olish qobiliyati va konseptual qaror chiqarish kompetensiyasi bilan uyg‘unlashishi lozim.

Xulosa qilganda, oliy ta‘lim jarayonida talabalarning konseptual fikrlashini rivojlantirish ta‘lim sifati, intellektual salohiyat va kasbiy kompetensiyalar shakllanishining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Konseptual fikrlashning rivojlanganligi talabaning bilimlarni tizimli o‘zlashtirishi, tushunchalararo bog‘lanishlarni anglash orqali ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishi hamda o‘z bilimlarini yangi vaziyatlarga moslashtirib qo‘llash imkoniyatini kengaytiradi. Mazkur jarayonni takomillashtirish uchun oliy ta‘lim tizimida bir qator metodik yo‘nalishlarga ustuvor ahamiyat qaratish lozim. Xususan, ta‘lim mazmunini konseptual asosda tuzish, konsept xaritalar, muammoli ta‘lim, keys-stadi hamda reflektiv metodlarni tizimli joriy etish, fanlararo integratsiya va STEAM yondashuvining didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanish natijasida talabalarning konseptual fikrlash kompetensiyasi izchil rivojlanadi. Shuningdek, baholash tizimini konseptual fikrlash natijalariga moslashtirish, ya‘ni talabaning tushunchalarni modellashtirishi, asosli izohlashi, tahlil qilishi va transfer qila olish ko‘nikmalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish ham muhim metodik zarurat sifatida namoyon bo‘ladi. Umuman olganda, mazkur metodik yechimlar oliy ta‘lim amaliyotida talabalarning fikrlash madaniyatini yuksaltirish, mustaqil bilim yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. 159 p.

2. Bruner, J. S. The Process of Education. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. 128 p.
3. Ausubel, D. P. Educational Psychology: A Cognitive View. New York: Holt, Rinehart and Winston, 1968. 685 p.
4. Novak, J. D., Gowin, D. B. Learning How to Learn. Cambridge: Cambridge University Press, 1984. 199 p.
5. Bloom, B. S. (Ed.). Taxonomy of Educational Objectives: Handbook I. Cognitive Domain. New York: Longmans, Green, 1956. 206 p.
6. Anderson, L. W., Krathwohl, D. R. (Eds.). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. New York: Longman, 2001. 352 p.
7. Flavell, J. H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry. *American Psychologist*, 1979, Vol. 34(10), pp. 906–911.
8. Hattie, J. A. C. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. London/New York: Routledge, 2009. 389 p.